

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduveiyev</b>	
Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati .....	6
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b>	
Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish.....	15
<b>Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov</b>	
Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) .....	22
<b>T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov</b>	
Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari .....	30
<b>O.T.Mirzamahmudov</b>	
Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari .....	36
<b>O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva</b>	
Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri .....	41
<b>G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
<b>Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov</b>	
Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish .....	54
<b>R.Y.Xoliqov</b>	
Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'ttasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b>	
Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
<b>Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov</b>	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash .....	68
<b>D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov</b>	
Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari .....	81
<b>K.M.Xakimov</b>	
Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida .....	87
<b>Y.B.Raxmatov</b>	
Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari .....	93
<b>R.T.Pirnazarov</b>	
Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari .....	96
<b>P.R.Qurbanov</b>	
Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari.....	103
<b>H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva</b>	
Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi .....	113
<b>Z.X.Madaminov</b>	
Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish .....	118
<b>E.G'.Mahkamov</b>	
Farg'ona vodiyisida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'naliishlari.....	122
<b>Z.A.Temirov</b>	
Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'ttasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
<b>M.M.Avezov, A.M.Elmurotova</b>	
Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif .....	135
<b>M.R.Usmanov</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

## FARG'ONA VILOYATI EKOTURISTIK IMKONIYATLARINI BAHOLASHNING BAZI JIHATLARI

### НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЭКОТУРИЗМА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

### SOME ASPECTS OF ASSESSING THE POSSIBILITIES OF ECOTOURISM IN THE FERGHANA REGION

**Mo'minov Doniyor G'ulomovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti  
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasи dotsenti, g.f.n.

**Tobirov Odiljon Qobiljon o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti  
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasи o'qituvchi, g.f.f.d. (PhD)

#### *Annotatsiya*

*Farg'ona viloyati ekoturistik resurs turlarini o'rGANish, uning tabiiy geografik jihatlarini ochib berish hamda ularni ekoturizmga yaroqliligini baholashdan iborat. Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda kvalimetrik tahlil, kompleks tabiiy geografik, kuzatuv, qiyosiy ekologik, kartografik, statistik, tizimli tahlil, tabiat komponentlarini miqdoriy tahlil qilish, GIS va boshqa metodlardan foydalaniladi. Ekoturizm tushunchasi va dunyo davlatlari tajribasini o'rganildi, Farg'ona viloyati ekoturizm imkoniyatlarini tahlil qilindi, Farg'ona viloyatidagi ekoturistik resurslar baholandi va kartalashtirildi. Turizm jamiyatning dam olish ehtiyojlarini qondirishni eng samarali usuli hisoblanadi. Ekoturizm va uning rivojlanishini tabiatdan ajralgan va ko'pincha qulay ekologik muhitdan mahrum bo'lgan odamlarning tabiat bilan aloqa qilish, boshqa xalqlarning madaniy an'analari bilan tanishish, obod landshaftlardan estetik zavq olish istagi bilan izohlanadi.*

*Mamlakatimizda va chet ellarda "ekoturizm" tushunchasining ta'riflari juda ko'p, eng qisqasi quyidagi ta'rifdir: "Ekoturizm - bu tabiatni bilish bilan bog'liq bo'lgan va mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olgan holda ekotizimlarni saqlashga hissa qo'shadigan turizm turi."*

*So'nggi yillarda O'zbekistonda ekoturizm tobora kengayib bormoqda. Mamlakatimizning eng katta va noyob sayyohlik va rekreatsion salohiyati ilmiy asoslangan va maqsadli foydalanishni talab qiladi. Bu ko'p jihatdan mamlakatimizga tegishli chunki, o'rmon va ko'llar, go'zal tabiiy manzaralari saqlanib qolganligi, sayyohlar uchun juda yoqimli bo'lgan noyob tabiiy va madaniy meros obyektlari mavjud.*

*Jamiyatning ekoturizmga bo'lgan qiziqishi bilan hududni ushbu ekoturistik faoliyatni rivojlantirish uchun yaroqliligi nuqtayi nazaridan nazarli va metodologik jihatlar bo'yicha baholash muammolari haligacha rivojlanmagan.*

*Ushbu masala bo'yicha ilmiy ishlarning mualliflari hududning ekoturistik potensialini baholash uchun eng maqbul bo'lgan quyidagi usullarni tavsiya etadilar: ekspert baholashidan foydalangan holda kvalifikatsion yondashuv, ballarni baholash usuli, sotsiologik so'rov va kartografik usul. Baholash jarayonida ularning namoyon bo'lish shaklida xilma-xil bo'lgan, dam olish faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish kerak. Shunga ko'ra, hududning umumiy integral ekoturistik potensialini omil nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak.*

#### *Annotatsiya*

В исследовательской работе заключается изучении типов экотуристических ресурсов Ферганской области, выявлении ее природно-географических аспектов и оценке их пригодности для экотуризма. При реализации данного научного исследования используются квалиметрический анализ, комплексный естественно-географический, наблюдательный, сравнительно-экологический, картографический, статистический, систематический анализ, количественный анализ природных компонентов, ГИС и другие методы. Изучены понятие экотуризма и опыт стран мира, проанализированы возможности экотуризма в Ферганской области, оценены и картированы ресурсы экотуризма в Ферганской области. Туризм является наиболее эффективным способом удовлетворения рекреационных потребностей общества. Экотуризм и его развитие объясняется стремлением людей, оторванных от природы и зачастую лишенных благоприятной экологической среды, общаться с природой, знакомиться с культурными традициями других народов, получать эстетическое удовольствие от богатых ландшафтов.

В нашей стране и за рубежом существует множество определений понятия «экотуризм», наиболее кратким является следующее определение: «Экотуризм – это вид туризма, связанный с природой и способствующий сохранению экосистем с учетом интересов местные люди.»

В последние годы в Узбекистане расширяется экотуризм. Самый большой и уникальный туристско-рекреационный потенциал нашей страны требует научного и целенаправленного использования. Это во многом касается и нашей страны, ведь здесь сохранились леса и озера, красивые природные ландшафты, есть уникальные объекты природного и культурного наследия, которые очень приятны для туристов.

При интересе общества к экотуризму проблемы теоретического и методологического аспектов оценки пригодности территории для развития этой эко туристской деятельности пока не разработаны.

Авторы научных работ по данному вопросу рекомендуют как наиболее подходящие для оценки экотуристского потенциала территории следующие методы: качественный подход с использованием

экспертной оценки, метод подсчета баллов, социологический опрос и картографический метод. В процессе оценки необходимо учитывать различные по форме проявления факторы, в той или иной степени влияющие на досуговую деятельность. Соответственно, необходимо рассматривать общий комплексный экотуристический потенциал территории с факторной точки зрения.

### **Abstract**

*It consists of studying the types of eco-tourism resources in the Fergana region, identifying its natural and geographical aspects, and assessing their suitability for ecotourism. When implementing this scientific research, qualimetric analysis, complex natural-geographical, observational, comparative-ecological, cartographic, statistical, systematic analysis, quantitative analysis of natural components, GIS, and other methods are used. The concept of ecotourism and the experience of countries around the world were studied, the possibilities of ecotourism in the Fergana region were analyzed, and ecotourism resources in the Fergana region were assessed and mapped. Tourism is the most effective way to meet the recreational needs of society. Ecotourism and its development are explained by the desire of people, cut off from nature and often deprived of a favorable ecological environment, to communicate with nature, get acquainted with the cultural traditions of other peoples, and receive aesthetic pleasure from rich landscapes.*

*In our country and abroad, there are many definitions of the concept of "ecotourism", the most concise is the following definition: "Ecotourism is a type of tourism associated with nature and promoting the conservation of ecosystems, taking into account the interests of local people."*

*In recent years, ecotourism has been expanding in Uzbekistan. The largest and most unique tourist and recreational potential of our country requires scientific and targeted use. This largely applies to our country, because forests lakes, and beautiful natural landscapes have been preserved here, and there are unique natural and cultural heritage sites that are very pleasant for tourists.*

*Given the public interest in ecotourism, the problems of theoretical and methodological aspects of assessing the suitability of a territory for the development of this ecotourism activity have not yet been developed.*

*The authors of scientific works on this issue recommend the following methods as the most suitable for assessing the eco-tourism potential of a territory: a qualitative approach using expert assessment, a scoring method, a sociological survey, and a cartographic method. In the assessment process, it is necessary to take into account factors of various forms that influence leisure activities to varying degrees. Accordingly, it is necessary to consider the overall comprehensive eco-tourism potential of the territory from a factorial point of view.*

**Kalit so'zlar:** ekologiya, geoekologiya, bioekologiya, urboekologiya, amaliy ekologiya, demoekologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, iqtisodiy ekologiya, umumiy ekologiya, turizm, rekreatsiya, tabiiy landshaft, antropogen landshaft, tabiiy resurslar, demografik sig'im.

**Ключевые слова:** экология, геоэкология, биоэкология, урбэкология, прикладная экология, демоэкология, экология человека, социальная экология, экономическая экология, общая экология, туризм, рекреация, природный ландшафт, антропогенный ландшафт, природные ресурсы, демографический потенциал.

**Key words:** ecology, geoecology, bio ecology, urban ecology, applied ecology, demoecology, human ecology, social ecology, economic ecology, general ecology, tourism, recreation, natural landscape, anthropogenic landscape, natural resources, demographic potential.

### **KIRISH**

Butunjahon turistik tashkilotining hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning 10 ta dasturi bayon etilgan bo'lib, unda "ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o'zgarishi, chiqindilarni nazorat qilish, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e'tibor berish" lozimligi ta'kidlangan. Shu bois ekoturizmni rivojlantirishda ekotizimlarning barqarorligini saqlash, bioxilma-xillikni va tabiat yodgorliklarini asrashni ilmiy asosda tashkil etish, ekoturizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida ekoturizmni rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Shuningdek, ekoturizmnning davriyiligini uzaytirish, hududiy tarkibini takomillashtirish, komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda turizm va uning tarmoqlarida (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ko'p tarmoqli tur firmalar sonini ko'paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish", hamda "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, Farg'on'a viloyati tabiatini ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil

qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 2018-yil 3-fevraldaggi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni, 2018-yil 6-fevraldaggi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 7-fevraldaggi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyun 484-sonli "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu bitiruv malakaviy ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ekoturizmga oid birinchi katta klassik tadqiqotlar g'arb olimlari tomonidan olib borilgan va bu turizmnинг yangi tarmog'i sifatida g'arb mamlakatlarida shakllandi. Tadqiqotchilar orasida David Fennel ("Ekoturizm: Kirish." 2006), Larmanlar alohida ajralib turadi.

Bundan tashqari, M.A.Hoshimovning "Religioznye i duxovnye pamyatniki Sentralnoy Azii" (2001), "Velikiy Shelkovyy put i Sentralnaya Aziya" (2005), "Speleoturizm" (2009), "O'zbekistonda ekologik turizm" (2009), kabi asarlari mavjud.

R.Hayitboyev, R.Amriddinovlarning "Turizmning maxsus turlari" (2008), R.Hayitboyev, A.Sattorovlarning "Turizm marshrutlarini ishlab chikish texnologiyasi" (2009), kabi uslubiy ko'llanma hamda ma'ruzalar matni turizmni o'rganishda muxim manba bo'lib xizmat kiladi. Olimlar ushbu asarlari orqali turizmda asosiy va maxsus turlar, turizmni rivojlantirish yo'llari, turistik marshrutlarning tasnifi kabi masalalarga oydinlik kiritgan.

Respublikamizda turizmga bo'lgan munosabat, uni ilmiy tarzda o'rganish masalasi 2000-yillardan yanada rivojlandi. Ayniqsa, M.G.Aliyeva, L.G.Hasanovalarning "Organizatsiya turisticheskix marshrutov" (2007), M.K.Pardayev, R.Atabayevlarning «Turistik resurslarni taxil qilish va baxolash» (2006) kabi asarlari muxim manba hisoblanadi.

So'ngi yillarda turizmning ekoturizm, agroturizm, geoturizm kabi tarmoqlarini nazariy asoslарini ilk bor O'zbekiston hududlari misolida yaratgan olim prof. A.N.Nigmatovning xizmatlari katta.

A.Nigmatov, N.Shomurotovalar tomonidan kasb-hunar kollejlari uchun "Ekoturizm asoslari" (2007) o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Ushbu qo'llanmada mualliflar tabiat qo'yniga sayoxatlar yushtirish, atrof-muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashda yuzaga keladigan ekologik munosabatlarni tizimlashtirish, boshqarish va tartibga solishning asosiy jihatlarini yoritib bergenlar [1].

A.Nigmatov, B. Kamolovlar (2018) tomonidan Namangan viloyati ekoturizmining hududiylilik, davriylik va komplekslilik jihatlari o'rganilgan.

A.Nigmatov, Sh. Yakubjanovalar (2018) O'zbekistonda agroturizmning tabiiy geografik jihatlari o'rganildi [2].

Biroq, hozirgacha ekotizimlar ekoturizmning alohida bir obyekti, ularning turistik imkoniyatlari esa, tadqiqot predmeti sifatida tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Xususan, Farg'ona viloyatining tabiiy ekotizimlari doirasida ekoturizmni rivojlantirish, turistik imkoniyatlarini aniqlash va tumanlar miqiyosida ekoturistik baholash masalalari tadqiq etilmagan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha Farg'ona viloyati hududining ekologik turizm uchun yaroqliliginibaholashni taklif qiladi. Dam olish faoliyatini tashkil etishda tabiiy komplekslarga bo'lgan talablarni tahlil qilish orqali tuzilgan va joylashtirilgan. Yuqorida tavsiflanganidek ko'rsatkichlar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiyga bo'linadi [4].

Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, hududning tabiiy- hududiylilik komplekslarini o'rganish obyekt sifatida ishlatalgan, bu ishda ma'muriy-hududiyl tuzilmalar taqqoslash uchun asos bo'lgan, chunki bunda ekoturistik salohiyatni hisoblash eng aniqdir. Bunday hisoblash nafaqat bitta tuman hududini balki butun viloyat hududini ekoturizm nuqtayi nazaridan baholash qulaydir [7].

Baholash usuli ekoturizmda hududlarni baholash ko'rsatkichlaridan foydalangan holda, baholash natijasida hududlarga yaroqlilik ko'rsatkichlarini berishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot

natijalariga ko'ra 11 ta ko'rsatkich tahlil qilindi, shunga ko'ra Farg'ona viloyatining har bir ma'muriy-hududiy bo'linmasiga ballar berildi. Umumiy ballar asosida har bir hududning ekoturizmni rivojlantirishga yaroqliligi to'g'risida yaxlit baho berilgan.

Ba'zi ko'rsatkichlar ochiq manbalardan to'plangan ma'lumotlar, xususan: o'rtacha yillik havo harorati, yog'ingarchilik, transport turi bo'yicha aniqlandi va baholandi.

Ko'rsatkichlarning yana bir qismi uchun ma'lumotni yig'ish va qayta ishslash, shuningdek, kartografik va ma'lumotnomalarni raqamlashtirish, shuningdek, kompyuter GIS texnologiyalari yordamida har bir ko'rsatkich uchun hududlarning yaroqliligini hisoblash zarur edi. Bunday parametrlarga quyidagilar kiradi: gidrografik tarmoqning zichligi, hududning suv miqdori, qo'riqlanadigan hududlar va tabiiy yodgorliklardan uzoqda, magistral yo'ldan uzoqligi.

Ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha elektron vektor xaritalarini yaratishni tayyorlash va amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- *asosiy kartografik asosni tanlash;*
- *asosiy kartografiya bazasini raqamlashtirish;*
- *Farg'ona viloyati hududini ma'muriy-dududiy bo'linishdan kelib chiqqan holda hududlarga bo'lish;*
- *obyektlarni vektorizatsiya qilish va xaritalarga bog'lash;*
- *o'rganilayotgan obyektlarning maydoni, bufer zonalarini va boshqa zarur ko'rsatkichlarni hisoblash;*

Hududning ekologik turizmni rivojlantirish uchun yaroqliligi parametrlarining birinchi guruhi tabiiyga tegishli. Unga quyidagi omillarning kichik guruhlari kiradi: landshaft qulayligi, iqlim qulayligi, kognitiv qiymat.

Baholash natijalariga ko'ra, ekoturizmni rivojlantirish uchun Bog'dod, Oltiariq, Uchko'prik, Furqat, Quva, Toshloq tumanlari va Farg'ona shahar hududlari "juda qulay" deb baholandi va 10 ball oldi. O'zbekiston, Beshariq, So'x,

Farg'ona, Rishton, Qo'shtepa, Dang'ara, Yozyovon tumanlari hamda Qo'qon

shahar hududlari "qulay" deb baholandi va 8 ball oldi. Buvayda tumani, Marg'ilon va Quvasoy shaharlari esa 4 ball bilan gidrografik tarmoq zichligi bo'yicha "kamroq qulay" deb baholandi.

Hududning suv bilan ta'minlanishini (ko'l va suv omborlar misolida) baholash uchun Farg'ona viloyatidagi (viloyat hududida yaqin bo'lgan qo'shni viloyatdagi ko'l va suv omborlar) barcha ko'l va suv omborlar raqamlashtirildi. Har bir ko'l va suv omborlarining perimetri bo'ylab 2 km gacha, 2 dan 4 km gacha, 4 dan 6 km gacha, 6 dan 8 km gacha va 8 km dan ortiq bo'lgan bufer zonalar yaratildi. Bufer zonaga kiradigan hududlar ko'l va suv ombor qirg'oqlari masofasiga qarab ekoturizmni rivojlantirish uchun yaroqlilik darajasi bilan belgilandi. U mos ravishda 10, 8, 6, 4 va 2 ballni tashkil etdi.

Bundan tashqari, har bir tuman va shahar hududi uchun bufer zonaga kiritilgan hududning maydoni hisoblab chiqilgan, har bir bunday zona hududning umumiy maydoniga nisbatan foiz nisbati hisoblab chiqilgan va uning umumiy ballari aniqlangan.

Baholash natijalariga ko'ra, Farg'ona viloyatidagi Farg'ona va Marg'ilon shaharlarining har biri 8 balldan to'plab, ekologik turizmni rivojlantirish uchun "qulay" deb baholandi. Buvayda, Qo'shtepa, Yozyovon tumanlarining har biri 6 balldan to'plab, ekologik turizmni rivojlantirish uchun "o'rtacha qulay" deb baholangan bo'lsa, Bog'dod, O'zbekiston, Beshariq, So'x, Farg'ona, Oltiariq, Uchko'prik, Dang'ara, Quva hamda Toshloq tumanlari 4 balldan to'plab, ekologik turizmni rivojlantirish uchun "kamroq qulay" deb baholandi. Ekologik turizmni rivojlantirish uchun "qulay emas" deb 2 ball bilan Rishton, Furqat tumanlari hamda Quvasoy va Qo'qon shaharlari baholandi.

Hududning iqlim qulayligini baholash uchun harorat va yog'ingarchilikning o'rtacha yillik ko'rsatkichlari hisobga olindi. Ushbu elementar xususiyatlarni yog'ingarchilikning tarqalishi konturlari va o'rtacha yillik haroratning izotermalari bo'yicha baholash uchun Farg'ona viloyati hududlarga bo'lindi, ularning har biri reyting shkalasi bo'yicha ekologik turizmni rivojlantirish uchun yaroqlilik ko'rsatkichlari bo'yicha ballarga ega bo'ldi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, har bir ma'muriy-hududiy birliklar "juda qulay", "qulay", "o'rtacha qulay", "kamroq qulay", "qulay emas" kabi hududlar foizi hisoblab chiqilgan. Bundan tashqari, ushbu nisbat har bir mintaqaning ekoturizmni rivojlantirish uchun yaroqliligi bo'yicha umumiy ball bilan qo'yildi.

Farg'ona viloyati hududlarining ekoturizm uchun yaroqlilagini tasniflash shkalasi asosida (1-jadval) biz ularning har birining yakuniy tafsiflarini oldik. Hududning ekoturizmga yaroqliligi o'n bitta parametrlarini baholash natijalariga ko'ra, Farg'ona viloyatining 19 ta ma'muriy-hududiy

## ILOVA TO'PLAM: GEOGRAFIYA

birliklarining har birini baholash natijasida, Farg'ona viloyati hududi ekoturizmni rivojlantirish uchun "qulay" deb tavsiflashimiz mumkin.

**1-jadval**

### Farg'ona viloyati ma'muriy-hududiy birliklarida 11 ta ko'rsatkich bo'yicha umumiy ball ko'rsatkichlari:

Bog'dod tumani	70 ball	Qo'qon shahri	80 ball
O'zbekiston tumani	68 ball	Furqat tumani	70 ball
Beshariq tumani	72 ball	Qo'shtega tumani	66 ball
So'x tumani	60 ball	Buvayda tumani	72 ball
Farg'ona tumani	76 ball	Dang'ara tumani	68 ball
Rishton tumani	66 ball	Yozyovon tumani	56 ball
Oltiariq tumani	74 ball	Quva tumani	68 ball
Uchko'prik tumani	72 ball	Toshloq tumani	70 ball
Quvasoy shahri	64 ball	Marg'ilon shahri	70 ball
Farg'ona shahri	84 ball		

Agar biz baholashni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'lish nuqtayi nazaridan qarasak, tabiiy omillar bo'yicha eng maqbul bo'lgan hududlar: Farg'ona shahri (44 ball) va Farg'ona tumani (40 ball), ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ko'ra, Qo'qon (46 ball), Farg'ona (40 ball), va Marg'ilon (40 ball) shaharlari hamda Bog'dod (40 ball), Buvayda (40 ball) tuman hududlari ko'proq mos keladi (2-jadval).

**2-jadval**

### Farg'ona viloyati hududining ekoturizmni rivojlantirish uchun yaroqliligin tasniflash shkalasi

0 dan 22 ballgacha	Qulay emas
22 dan 44 ballgacha	Kamroq qulay
44 dan 66 ballgacha	O'rtacha qulay
66 dan 88 ballgacha	Qulay
88 dan 110 ballgacha	Juda qulay

## XULOSA

O'zbekistonda ekoturizm tobora kengayib bormoqda. Mamlakatimizning eng katta va noyob sayyohlik va rekreatsion salohiyati ilmiy asoslangan va maqsadli foydalanishni talab qiladi. Bu ko'p jihatdan mamlakatimizga tegishli chunki, o'rmon va ko'llar, go'zal tabiiy manzaralari saqlanib qolganligi, sayyohlar uchun juda yoqimli bo'lgan noyob tabiiy va madaniy meros obyektlari mavjud.

Jamiyatning ekoturizmga bo'lgan qiziqishi bilan hududni ushbu ekoturistik faoliyatni rivojlantirish uchun yaroqliligi nuqtayi nazaridan nazariy va metodologik jihatlari bo'yicha baholash muammolari haligacha rivojlanmagan.

Ushbu masala bo'yicha ilmiy ishlarning mualliflari hududning ekoturistik potensialini baholash uchun eng maqbul bo'lgan quyidagi usullarni tavsiya etadilar: ekspert baholashidan foydalangan holda kvalifikatsion yondashuv, ballarni baholash usuli, sotsiologik so'rov va kartografik usul. Baholash jarayonida ularning namoyon bo'lism shaklida xilma-xil bo'lgan, dam olish faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish kerak. Shunga ko'ra, hududning umumiy integral ekoturistik potensialini omil nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak.

Ushbu ishda Farg'ona viloyatining ekoturizmni rivojlantirish uchun ekoturistik imkoniyatlarini baholash uchun kartografik usul bilan omillarni baholab birlashtirish usulidan foydalanilgan. Baholashda biz hududning ekoturizm uchun yaroqliligin tasriflovchi ko'rsatkichlardan foydalandik. Tabiiy sharoitga ko'ra, bu landshaft va iqlim qulayligi, hududning kognitiv qiymati. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'ra, bu transport, ekologik holatlardir.

Ushbu ishning vazifalarini hal qilish uchun GIS texnologiyalaridan foydalanib, quyidagi obyektlar raqamlashtirildi va baholandi: daryo tarmog'i, ko'llar, magistral yo'llar, alohida muhofaza etiladigan hududlar va tabiiy yodgorliklar. Faktor xaritalari asosiy kartografik bazaning qatlamlari, topografik xaritalar va hududning ma'muriy-hududiy bo'linmasining xaritalari yordamida yaratilgan. Ularni yaratish uchun o'rganish sohasida jamoat mulki bo'lgan kartografik, adabiy, ma'lumotnomha, fond materiallari jaib qilindi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 11 ta faktor xaritalari yaratildi, ulardan 6 tasi tabiiy sharoitlarni baholash uchun, 5 tasi ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar. Faktor xaritalarida ta'kidlangan har bir

obyekt miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichi bilan tafsiflangan, ularning har biri tegishli omil xaritasining atributlar jadvalida keltirilgan.

Umuman olganda, Farg'ona viloyatining dam olish imkoniyatlarini baholash jarayonida Farg'ona viloyatining har bir ma'muriy-hududiy birliklari uchun o'n bitta tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar baholandi. Ekologik-geografik baholash natijalari og'zaki shaklda, baholash natijalarining sifat ko'rsatkichlari orqali, shuningdek raqamli nuqtayi nazardan berilgan. Tahlildan so'ng barcha fikrlar sarhisob qilindi va ekoturizmni rivojlantirish uchun eng mos hududlar aniqlandi.

Farg'ona viloyati ma'muriy-hududiy birliklarining ekoturizm uchun yaroqligini kompleks baholash natijasida har bir ma'muriy-hududiy birliklar ekoturizmni rivojlantirish uchun "qulay" deb baholandi.

Tabiiy omillar bo'yicha eng maqbul bo'lgan hududlar: Farg'ona shahri (44 ball) va Farg'ona tumani (40 ball), ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ko'ra, Qo'qon (46 ball), Farg'ona (40 ball), va Marg'ilon (40 ball) shaharlari hamda Bog'dod (40 ball), Buvayda (40 ball) tuman hududlari yuqori ballar bilan baholandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Nigmatov A., Shomuratova N. Ekologik turizm — yangi fan sohasi // Ekologiya xabarnomasi, 2003. 6сон. 14—17-б.
- 2.Nigmatov A., Shomurotova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. j.№2, —Toshkent. 2007. 46-54-б.
- 3.Mominov Daniyor Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. Eur. Chem. Bull. 2023,12(Special Issue 1, Part-B), 1896-1901. Article History: Received: 01.02.2023.
- 4.Mominov Daniyor Gulomovich. GEOECOLOGICAL BASIS OF SOUTH FERGANA NATURE PROTECTION AND RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
- 5.Mo'minov D.G'. Qo'ziboeva O.M. SUG'ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH VA LANDShAFT-MELIORATIV BAHOLASH (ANDIJON VILOYal MISOLIDA). «Ekonomika i sotsium» Vypusk №1(104) 2 chast (yanvar, 2023). Sayt: <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9. (Mominov D.G. Koziboeva O.M. USE OF IRRIGATED LANDS AND LANDSCAPE-MELIORATIVE ASSESSMENT (ANDIJAN REGION AS AN EXAMPLE). "Economics and society" Vypusk #1(104) 2 chapters (January, 2023). Website: http://www.iupr.ru. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9).
- 6.Muminov Daniyor Gulomovich. SOME CONSIDERATIONS ON THE ECOLOGICAL STATUS OF LAND RESOURCES GALAAXY. INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY. RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Volume 10, Issue 12, December, 2022. ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718.
- 7.Mo'minov Doniyor G'ulomovich. GEOECOLOGICAL MAPPING OF LAND RESOURCES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. VOLUME 3, ISSUE 3 , MARCH-2022. ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565.
- 8.Mo'minov Doniyor G'ulomovich. Geokologik muammolarni bartaraf etishda agrodemografik bosimni hisobga olish. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. (Mominov Daniyor Gulomovich. Considering agrodemographic pressure in solving geoecological problems. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723).
- 9.Muminov Doniyor Gulomovich. Some issues of socio-economic geographical study of rural areas. TJG - Tematics journal of Geography. Vol-5-Issue-1-2021. ISSN – 2277-2995. http:thematics journals. in UIF 2020= 6.722 IFS 2020 = 7.652.
10. Д.Ф.Мўминов. Улучшение геоэколого-хозяйственного состояния сельской местности путём оптимизации агродемографического давления. "Илм сарчашмалари". Урганч давлар университетининг илмий-назарий, методик журнали. 2022-4. (D.G.Mўminov. Improving the geo-ecological and economic condition of rural areas by optimizing agro-demographic pressure. "Ilm sarchashmalari." Urganch davlar universityning ilmiy-nazariy, journal methods. 2022-4).